



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

MEHMONXONALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MARKETING XIZMATINING O'RNI VA MOHIYATI

Tleumuratov Arislanbek¹

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

KEYWORDS

Mehmonxona xo'jaligi, marketing, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xizmatlar sifati, strategiya, raqobatbardoshlik, mijoz ehtiyoji, turizm, brend imiji.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mehmonxona xo'jaligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirishda marketing xizmatining tutgan o'rni va mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada marketing strategiyalarining hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ko'rsatadigan ijobjiy ta'siri haqida fikr yuritiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15459387](https://doi.org/10.5281/zenodo.15459387)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bugungi globallashuv va raqobat muhitida mehmonxona xo'jaligi turizm sanoatining ajralmas qismi sifatida alohida o'rın tutadi. Mehmonxona xizmatlari sifati va keng qamrovliligi nafaqat xorijiy sayyohlarni jalgan etishda, balki ichki turizmni rivojlanirishda ham muhim rol o'yndaydi. Shu nuqtai nazardan marketing xizmatlari mehmonxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda, mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarini ishlab chiqishda va umuman, ijtimoiy-iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatishda asosiy vositadir.

Marketing — bu mijoz ehtiyojini aniqlash, unga mos mahsulot va xizmatlar yaratish, bozorga taklif qilish va foyda olish jarayonidir. Mehmonxona faoliyatida marketing xizmatlari quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- bozorni o'rganish va maqsadli auditoriyani aniqlash;
- xizmatlar paketini shakllantirish va narx siyosatini belgilash;
- reklama va PR faoliyatini olib borish;
- mijozlar bilan aloqa strategiyasini yuritish;
- brend imijini shakllantirish. [1]

Shuningdek marketing xizmatlari mehmonxona faoliyatida quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Raqobatbardoshlikni oshirish: Raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish orqali o'ziga xos va

¹ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

noyob xizmatlar yaratish imkonini beradi.

Mijozlar ehtiyojini qondirish: Bozorni doimiy monitoring qilish asosida xizmatlar sifatini takomillashtirishga yordam beradi.

Foyda olishni barqarorlashtirish: To'g'ri tanlangan marketing strategiyasi orqali foydalanuvchi oqimini barqarorlashtirish mumkin.

Brend va obro' yaratish: Mijozlarga individual yondashuv asosida brendga sodiqlikni shakllantirishga xizmat qiladi.[2]

Marketing strategiyalari orqali mehmonxonalar:

- yangi ish o'rirlari yaratadi;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytiradi;
- hududiy turizmni rivojlantirishga hissa qo'shadi;
- xorijiy valyuta tushumlarini oshiradi;
- iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyasiga yordam beradi.[3]

Marketing xizmatini takomillashtirish uchun mehmonxonalar quyidagi strategiyalardan foydalanadi:

Raqamli marketing – ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, SEO, e-mail marketing;

Segmentatsiya va maqsadli reklama – mijoz guruhlariga moslashtirilgan takliflar;

Reklama va PR kampaniyalari – brend obro'sini shakllantirish;

Onlayn reytinglar va mijoz fikrlari bilan ishlash – ishonchni oshirish.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda samarali marketing kampaniyalari natijasida mehmonxonalar daromadi 18% ga oshgan. Shu bilan birga, mijozlar soni ham 14% ga ko'paygan.[4]

2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 1 089 ta mehmonxona faoliyat yuritmoqda. 54 ta mehmonxona yulduz toifasiga ega bo'lib, shundan 4 tasi besh yulduzli, 13 tasi to'rt yulduzli, 35 tasi uch yulduzli va 2 tasi ikki yulduzli mehmonxonalardir. Mehmonxonalardan tashqari, 85 ta dam olish zonalari va 229 ta boshqa turdag'i joylashtirish vositalari mavjud. [5]

2025-yilda O'zbekistonda mehmonxona xonalarining o'rtacha narxi bir kechaga \$75-\$79 atrofida bo'lgan. Yulduz toifasiga ko'ra o'rtacha narxlar:

1 yulduzli mehmonxonalar: \$140-\$145

2 yulduzli: \$44

3 yulduzli: \$86-\$94

4 yulduzli: \$91-\$93

5 yulduzli: \$63-\$66

2025-yilda mehmonxona narxlari oylar kesimida quyidagicha o'zgarib turgan:

Eng arzon oylar: Yanvar (\$61-\$73), Fevral (\$61-\$73), Noyabr (\$68-\$69), Dekabr (\$66-\$67)

Eng qimmat oylar: Avgust (\$91-\$95), Sentabr (\$98-\$105), Oktyabr (\$80-\$83)

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar oyida mehmonxona xizmatlari narxlari o'tgan oyga nisbatan o'rtacha 2,5% ga oshgan. [6]

TripAdvisor saytida Ózbekistonning 2333 mehmonxonalari joylashtirilgan bolib shundan 42 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasiga ya'ni Nukus shahriga to'g'ri keladi. Sayttan

foydalanuvchilarning qoldirgan sharhlarini tahlil qilgan holda quyidagi mehmonxonadagi sharhlarni keltirishimiz mumkin:

«Jipek joli 2» mehmonxona sizga jámi 75 ta sharh qoldirilgan bolsa, ulardan deyarli hammasi ijobiy sharhlar qoldirishgan. 2018-yil va 2017-yil oraliqlarida borgan mehmonlardan biroz salbiy sharhlar yozilganligini korishimiz mumkin yani, «Dunyodagi eng og'ir to'shak!», «Yaxshi mehmonxona, lekin unchalik qiziqarli emas», «Toza, yomon dizayn» kabi salbiy sharhlar ham topildi lekin bular 2015 va 2017-yillardagi sharhlar. Shundan keyingi yillar va oxirgi 1 oy oldingi sharhlar ga keladigan bolsak, barchasi «Ajoyib, mukammal va yuda yaxshi» kabi sharhlar qoldirishgan.[7]

Xulosa qilib aytganda, mehmonxonalar faoliyatida marketing xizmatining roli nihoyatda muhimdir. U xizmat sifatini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va eng asosiysi, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mehmonxonalar o'z marketing siyosatini zamonaviy yondashuvlar asosida olib borishlari va innovatsion usullardan faol foydalanishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov Sh.N. "Marketing asoslari". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
2. Raximov A.R. "Mehmonxona xo'jaligi va turizm sohasida menejment". – Samarqand: Zarafshon, 2021.
3. "Turizmda xizmat ko'rsatish va menejment asoslari" – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy hisobotlari, 2024 yil.
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
6. <https://hotels-with-air-conditioning.world/statistics/hotels/asia/uzbekistan>

<https://www.tripadvisor.ru/>